**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/2025.27.12.Ped.08.05
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

RAXMATULLAYEVA BARNO BAXTIYOR QIZI

UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTABLARIDA INGLIZ TILI DARSLARINI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH (7–8-sinf o‘quvchilari misolida)

**13.00.02 – Ta‘lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
(ingliz tili)**

**PEDAGOGIKA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2026

UO‘K : 373.091.3:811.111:004:159.955

Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по педагогическим наукам

Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on pedagogical sciences

Raxmatullayeva Barno Baxtiyor qizi
Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida ingliz tili darslarini raqamli texnologiyalar asosida takomillashtirish (7–8-sinf o‘quvchilari misolida) 3

Рахматуллаева Барно Бахтиёр кизи
Совершенствование преподавания английского языка в общеобразовательных школах на основе цифровых технологий (на примере учащихся 7–8-х классов) 25

Rakhmatullaeva Barno Bakhtiyor kizi
Improving English language teaching in general secondary schools through digital technologies (a case study of 7th–8th grade students).....49

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
Список опубликованных работ
List of published works.....53

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/2025.27.12.Ped.08.05
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

RAXMATULLAYEVA BARNO BAXTIYOR QIZI

UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTABLARIDA INGLIZ TILI DARSLARINI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH (7–8-sinf o‘quvchilari misolida)

**13.00.02 – Ta‘lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
(ingliz tili)**

**PEDAGOGIKA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2026.1.PhD/Ped12171 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Navoiy davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.buxdu.uz) hamda “Ziyonet.uz” axborot-ta‘lim portali – (www.ziyonet.uz) manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Narzikulova Dilnoza Xoshimjonovna** pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Rasmiy opponentlar:	**Axmedova Mehrinigor Bahodirovna** filologiya fanlari doktori (DSc), professor
	Aslanova Nozima Hakimovna pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yetakchi tashkilot:	**Shahrisabz davlat pedagogika instituti**

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/2025.27.12.Ped.08.05 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil 12-noyabr soat 11.00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko‘chasi, 11-uy. Tel.: (0365) 221-29-14; faks: (0365) 221-57-27; e-mail: buxdu_rektor@buxdu.uz)

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (D/1087 raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko‘chasi, 11-uy. Tel.: +99865 221-29-14)

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil 31-oktyabr kuni tarqatildi.

(2026 - yil 30-oktyabrdagi 25-raqamli reyestr bayonnomasi).

N.B. Ataboyev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, filologiya fanlari dokrori (DSc), professor

Y.B. Ro‘ziyev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Sh.Sh. Olimov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda ingliz tili xalqaro muloqot, ilm-fan, texnologiya va biznes sohalarida keng qo‘llaniladigan yetakchi xorijiy tillardan biri hisoblanadi. Shu munosabat bilan ingliz tilini o‘qitish jarayonida raqamli platformalar, multimedia resurslari, virtual o‘quv muhiti, interaktiv topshiriqlar hamda raqamli baholash vositalaridan foydalanish kengayib bormoqda. Raqamli vositalar ta’lim mazmunini individuallashtirish, o‘quvchilarning mustaqil ta’lim faoliyatini qo‘llab-quvvatlash hamda ularning kommunikativ faolligini oshirish imkonini beradi.

Dunyo mamlakatlari tajribasida ingliz tilini o‘qitish jarayonini modernizatsiya qilish, raqamli ta’lim muhitini yaratish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini o‘quv jarayoniga integratsiyalash ustuvor yo‘nalishlar sifatida qaralmoqda. Bunda raqamli vositalardan darsning maqsadi, mazmuni, o‘quvchilarning tayyorgarlik darajasi va kutilayotgan natijalar bilan uzviy bog‘liq holda foydalanish muhim metodik ahamiyat kasb etadi. Xususan, multimedia materiallari va interaktiv topshiriqlar o‘quvchilarning til ko‘nikmalarini rivojlantirish, mustaqil ishlashini qo‘llab-quvvatlash hamda darsdagi faolligini oshirishga xizmat qiladi.

Mamlakatimizda ham umumiy o‘rta ta’lim maktablarida ingliz tilini o‘qitishda elektron darsliklar, milliy ta’lim platformalari, multimedia resurslari va onlayn o‘quv vositalarini qo‘llashga alohida e’tibor qaratilmoqda. Biroq mazkur vositalardan foydalanish amaliyotida raqamli resurslarning metodik jihatdan yetarli darajada tizimlashtirilmaganligi, o‘qituvchilarning raqamli pedagogik kompetensiyalari turlicha darajada ekani hamda darslarda texnologiyalardan foydalanishning yaxlit metodik modeli yetarli shakllanmaganligi kuzatiladi. Ayniqsa, umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 7–8-sinflari tadqiqot doirasi sifatida o‘ziga xos metodik ahamiyatga ega. Mazkur bosqichda o‘quvchilar avval o‘zlashtirgan boshlang‘ich leksik-grammatik bilimlarini murakkabroq tinglash, gapirish, o‘qish va yozish vaziyatlarida amaliy qo‘llashga o‘tadilar. O‘quv materiallari mazmunining kengayishi, kommunikativ topshiriqlarning murakkablashishi hamda o‘quvchilarning individual ta’lim sur’atlaridagi farqlarning yaqqolroq namoyon bo‘lishi darslarni differensial va raqamli vositalar asosida tashkil etishni talab qiladi. Biroq 7–8-sinf ingliz tili darslarida raqamli vositalardan foydalanish ko‘pincha taqdimot, video yoki alohida onlayn topshiriqlar bilan cheklanib qolmoqda. Onlayn o‘quv platformasi, multimedia resurslari, interaktiv topshiriqlar, onlayn baholash va adaptiv ta’lim vositalarini o‘zaro bog‘liq, bosqichma-bosqich hamda o‘quvchilarning individual ehtiyojlariga mos holda qo‘llash metodikasi yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Natijada raqamli texnologiyalarning o‘quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishdagi didaktik imkoniyatlaridan to‘liq foydalanilmayapti.

O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi O‘RQ-637-son “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuni[1], 2020-yil 29-oktabrdagi PF-6097-son “Ilm fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi va O‘zbekiston

[1] O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi O‘RQ-637-son “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. – URL: https://lex.uz/docs/-5013007

Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” farmonlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 11-avgustdagi 610-sonli “Ta’lim muassasalarida chet tillarini o‘qitishning sifatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori, 2023-yil 24-maydagi PQ-162-son “Raqamli xizmatlar qamrovi va sifatini oshirish hamda soha, tarmoq va hududlarni raqamli transformatsiya qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi va 2025-yil 16-sentyabrdagi PQ-286-son “Respublikaning hudud, soha va tarmoqlarida raqamli texnologiyalar joriy etilishini yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-yanvar va 2020-yil 29-dekabrdagi Oliy Majlisga Murojaati hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti natijalari muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” mavzusidagi ilmiy yo‘nalish doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Xorijiy tillarni o‘qitish metodikasi masalalari O‘zbekistonda L. Axmedova, G. Bakieva, J. Jalolov, B. Kulmatov, G. Mahkamova, S. Misirov[2] kabi olimlar tomonidan o‘rganilgan. Ularning tadqiqotlarida chet tillarni o‘qitishning nazariy-metodik asoslari, kommunikativ va kompetensiyaviy yondashuvlar, nutqiy ko‘nikmalarni rivojlantirish hamda innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo‘llash masalalari yoritilgan.

Respublikamizda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yordamida tillarni o‘qitish masalalari bo‘yicha S. Abdullayeva, M. Aliev, G. Sabirov, D. Kadirbekova, A. Raxmonov, U. Begimqulov, S. Tursunov, M. Lutfillaev, N. Muslimov[3] kabi olimlar ilmiy izlanishlar olib borishgan. Mazkur tadqiqotlarda AKT, elektron o‘quv resurslari va innovatsion ta’lim texnologiyalarining didaktik imkoniyatlari, ta’lim oluvchilarning mustaqil faoliyatini faollashtirish hamda ta’lim samaradorligini oshirishdagi o‘rni asoslangan.

MDH mamlakatlarida chet tillarini o‘qitish jarayoniga raqamli texnologiyalarni tatbiq etish masalalari S.I. Shevchenko, E.M. Shulgina va S.T. Valiev[4] tomonidan

---

[2] Ahmedova L.T., Normuratova V.I. Teaching English Practicum (Practical Course of Teaching English Methodology). – Tashkent: UWED, 2011. – 164 p. Bakieva G., Iriskulov M., Russek M., Kan G., Tahirjanova S., Kambarov N. Stay in Touch. – Tashkent: O‘zDJTU, 2007. – 279 p. Jalolov J.J., Makhkamova G.T., Ashurov Sh.S. English Language Teaching Methodology: Theory and Practice. – Tashkent: Fan va texnologiya, 2015. – 336 p.

[3] Abdullayeva S.X. O‘yin orqali ta’lim: nazariy va amaliy asoslar. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2022. – 180 b. Рахмонов А.Б. Внедрение виртуальной реальности в образовательный процесс: достоинства и недостатки // European Science. – 2020. – № 5 (54). – C. Muslimov N.A., Usmonboyeva M.H., Sayfurov D.M., To‘rayev A.B. Innovatsion ta’lim texnologiyalari: o‘quv-metodik qo‘llanma. – Toshkent: Sano-standart, 2015. – 208 b. Kadirbekova D.X. Ingliz va o‘zbek tillarida axborot texnologiyalari terminologiyasining lingvistik xususiyatlari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2016. – 128 b.

[4] Шевченко С.И. Формирование коммуникативной компетенции в чтении на английском языке с применением компьютерных технологий в вузах: автореф. дис. ... канд. пед. наук. – Киев, 2004. – 24 с. Шульгина Е.М. Методика формирования иноязычной коммуникативной компетенции студентов посредством технологии веб-квест (профиль «Рекреационная география и туризм», английский язык): дис. ... канд. пед. наук: 13.00.02. – Томск, 2014. – 243 с. Валиев С.Т. Педагогические особенности использования

tadqiq etilgan. S.I. Shevchenko ingliz tilida o‘qish bo‘yicha kommunikativ kompetensiyani kompyuter texnologiyalari yordamida shakllantirish metodikasini ishlab chiqqan. E.M. Shulgina veb-kvest texnologiyasi orqali talabalarning xorijiy tildagi kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish imkoniyatlarini o‘rgangan. S.T. Valiev esa ingliz tilini o‘qitishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik xususiyatlarini tadqiq etgan. Biroq ushbu tadqiqotlarning aksariyati oliy ta’lim bosqichiga yo‘naltirilgan bo‘lib, umumiy o‘rta ta’lim maktablarining aynan 7–8-sinflarida ingliz tili darslarini raqamli platforma, multimedia vositalari va adaptiv topshiriqlar asosida yaxlit tashkil etish metodikasi maxsus tadqiq etilmagan.

Xorijiy mamlakatlarda esa S. Bates, M. Barbour, H. Bijnens, J. Sheils, R. Gairns, Y. Yang[5] kabi olimlar raqamli va aralash ta’lim, mobil va onlayn o‘qitish, raqamli baholash hamda zamonaviy ta’lim vositalaridan foydalanishning umumdidaktik va metodik jihatlarini tadqiq etganlar. Qiyosiy tahlil milliy tadqiqotlarda chet tillarni o‘qitish metodikasi va AKTdan foydalanishning umumiy asoslari, MDH mamlakatlari tadqiqotlarida lingvodidaktik hamda onlayn ta’lim masalalari, xorijiy tadqiqotlarda esa raqamli, mobil va aralash ta’lim imkoniyatlari ustuvor ekanini ko‘rsatadi.

Biroq mazkur tadqiqotlarda ta’lim o‘zbek tilida olib boriladigan umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 7–8-sinflarida ingliz tili darslarida multimedia resurslari, interaktiv topshiriqlar, individual yondashuv va raqamli baholashni o‘zaro bog‘liq holda qo‘llash metodikasi yetarli darajada ishlab chiqilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertasiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Navoiy davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining I-OT-2025-2026 “Axborotlashgan jamiyatda ilmiy-pedagogik tadqiqotlar integratsiyasi, gibridlashuvi, transformatsiyasi: muammo va yechimlar” mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi umumiy o‘rta ta’lim maktablari 7-8-sinflarida ingliz tili darslarini raqamli texnologiyalar asosida takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

ingliz tilini raqamli texnologiyalar asosida o‘qitish jarayonining didaktik imkoniyatlarini aniqlashtirish;

7-8-sinf ingliz tili darslarini raqamli texnologiyalar asosida tashkil etish metodikasini ishlab chiqish;

ingliz tilini raqamli texnologiyalar asosida o‘qitishning tashkiliy-metodik ta’sirni kuchaytirishga yo‘naltirilgan metodik modelni takomillashtirish;

ingliz tilini raqamli texnologiyalar asosida o‘qitish samaradorligini baholash mezonlarini takomillashtirish hamda takomillashtirilgan metodika, metodik model va baholash tizimining samaradorligini tajriba-sinov ishlari orqali aniqlash.

Tadqiqot obyekti sifatida umumiy o‘rta ta’lim maktablarida 7–8-sinflar

информационно-коммуникационных технологий при обучении английскому языку в высших учебных заведениях Республики Таджикистан: автореф. дис. ... канд. пед. наук: 5.8.1. – Душанбе, 2023

[5] Barbour M.K. The Landscape of K–12 Online Learning: Examining What Is Known // Handbook of Distance Education / eds. M.G. Moore, W.C. Diehl. 4th ed. – New York: Routledge, 2019. – P. 521–542. Bates A.W. Teaching in a Digital Age: Guidelines for Designing Teaching and Learning. 3rd ed. – Tony Bates Associates Ltd., 2022. Bijnens M., Vanbuel M., Verstegen S., Young C. Handbook on Digital Video and Audio in Education: Creating and Using Audio and Video Material for Educational Purposes. – VideoAktiv Project, 2006. – 114 p.

o‘quvchilariga ingliz tilini o‘qitish jarayoni, xususan, raqamli texnologiyalardan foydalanish amaliyoti olingan bo‘lib, tajriba-sinov ishlarida Namangan viloyati Kosonsoy tumani 30, 31, 34-umumiy o‘rta ta’lim maktabi, Navoiy viloyati Navoiy shahridagi 7-umumiy o‘rta ta’lim maktabi, Samarqand viloyati Kattaqo‘rg‘on tumani 18-umumiy o‘rta ta’lim maktabi, Samarqand tumani 7-umumiy o‘rta ta’lim maktabi, Nurobod tumani ixtisoslashtirilgan maktab-internatidan jami 540 nafar o‘quvchi jalb etilgan.

Tadqiqot predmetini umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 7–8-sinflarida ingliz tilini raqamli texnologiyalar asosida o‘qitishning didaktik imkoniyatlari, “Prepare.uz” platformasi, multimedia va adaptiv ta’lim vositalarini integratsiyalashga asoslangan o‘qitish metodikasi va metodik model, shuningdek, o‘quv natijalarini baholash mezonlari hamda diagnostik tizim tashkil etadi.

Tadqiqot usullari. Tadqiqot jarayonida mavzuga oid ilmiy-nazariy, o‘quv-me’yoriy va o‘quv-metodik manbalarni o‘rganish hamda tahlil qilish, qiyosiy tahlil, pedagogik kuzatish, suhbat, onlayn so‘rovnoma, test, diagnostik so‘rovnoma, pedagogik loyihalash, modellashtirish, ekspert baholash, pedagogik tajriba-sinov hamda tadqiqot natijalarini matematik-statistik qayta ishlash usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ingliz tilini raqamli texnologiyalar asosida o‘qitish jarayonining didaktik imkoniyatlari o‘quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishga yo‘naltirilgan raqamli, kognitiv va kommunikativ ta’lim komponentlarining o‘zaro integratsiyasi hamda funksional bog‘liqligini ta’minlash asosida aniqlashtirilgan;

7–8-sinf ingliz tili darslarini raqamli texnologiyalar asosida tashkil etish metodikasi “Prepare.uz” ta’lim platformasi va multimedia texnologiyalarini ta’lim jarayoniga bosqichma-bosqich va tizimli integratsiyalash hamda o‘quvchilarning individual kommunikativ rivojlanish trayektoriyalarini belgilash asosida ishlab chiqilgan;

ingliz tilini raqamli texnologiyalar asosida o‘qitishning tashkiliy-metodik ta’sirini kuchaytirishga yo‘naltirilgan metodik model madaniy xabardorlik, differensial o‘qitish, motivatsiya va rag‘batlantirish, hamkorlikda o‘rganish hamda til ko‘nikmalarini integratsiyalash tamoyillari asosida “Prepare.uz” platformasi, multimedia vositalari va monitoring natijalariga moslashtirilgan topshiriqlarning uzviy integratsiyasini ta’minlash orqali takomillashtirilgan;

ingliz tilini raqamli texnologiyalar asosida o‘qitish samaradorligini baholash mezonlari o‘quvchilarning xorijiy tilga oid bilim va ko‘nikmalarini amaliy nutq faoliyatida qo‘llashga yo‘naltirilgan motivatsion, kognitiv, nutqiy – kommunikativ, faoliyatli – texnologik diagnostik ko‘rsatkichlar bilan boyitish orqali takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat.

60230100 – Filologiya va tillarni o‘qitish (ingliz tili) ta’lim yo‘nalishi talabalari — bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining pedagogik amaliyot va kelgusidagi kasbiy faoliyatida umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 7–8-sinflarida ingliz tili darslarini raqamli texnologiyalar asosida tashkil etish, raqamli platformalar, multimedia vositalari va interaktiv topshiriqlardan metodik jihatdan samarali foydalanish kompetensiyasini rivojlantirishga mo‘ljallangan “Tillar o‘qitish metodikasi va ta’lim texnologiyalari” nomli o‘quv qo‘llanma chop etilgan;

7–8-sinf ingliz tili darsliklari mazmuniga mos audio-video materiallar, interaktiv mashqlar, onlayn testlar va elektron baholash vositalarini birlashtiruvchi “Prepare.uz” elektron ta’lim platformasi yaratilgan hamda № DGU 57080 raqami bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan;

“Prepare.uz” platformasidan foydalanishga mo‘ljallangan raqamli dars ishlanmalari, interaktiv topshiriqlar, kommunikativ mini-loyihalar va metodik tavsiyalar majmui ishlab chiqilgan;

o‘quvchilarning kommunikativ hamda raqamli kompetensiyalarini aniqlashga mo‘ljallangan CEFR A2 darajasidagi dastlabki va yakuniy diagnostik testlar, elektron portfolio hamda kuzatuv xaritasi ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi pedagogik ta’lim sohasidagi yetakchi o‘zbek va xorijiy olimlar, shuningdek, amaliyotchi mutaxassislarning ilmiy ishlariga tayanilganligi; tadqiqot maqsadi va vazifalariga mos keluvchi, o‘zaro bir-birini to‘ldiruvchi ilmiy-nazariy, diagnostik, eksperimental hamda statistik metodlarning kompleks qo‘llanilganligi; tajriba-sinov ishlari natijalarining miqdoriy va sifat jihatdan ishonchli tahlil qilinganligi; ishlab chiqilgan metodika va tavsiyalarning tajriba-sinov maktablari (Navoiy, Samarqand va Namangan viloyatlaridagi maktablar) hamda “Prepare.uz” platformasining ta’lim amaliyotiga joriy etilib, tegishli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqotning ilmiy ahamiyati ingliz tilini raqamli texnologiyalar asosida o‘qitishning ilmiy-metodik asoslarini yanada boyitishi, o‘quvchilarning til kompetensiyalari mazmuni va tuzilmasini ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilish, ingliz tili ta’limida ushbu kompetensiyani rivojlantirishga xizmat qiluvchi modelni yaratishi va nazariy asoslashi, raqamli texnologiyalarni til o‘qitish jarayoniga integratsiya qilish asosida 7–8-sinf o‘quvchilarining til ko‘nikmalari va tanqidiy fikrlash, muammoni hal etish, qaror qabul qilish, ijodkorlik kabi yuqori darajadagi kognitiv faoliyat turlarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishi, 7–8-sinf darsliklari asosida tayyorlangan “Prepare.uz” raqamli platformasi orqali ingliz tili darslarini innovatsion tashkil etilishi bo‘yicha yangi uslubiy yondashuvlarning ishlab chiqilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati uning natijalari va ishlab chiqilgan metodika umumta’lim maktablarining o‘quv jarayoniga joriy etish imkoniyati, xorijiy til o‘qitish metodikasi, xususan, ingliz tili ta’limi fanlarida ma’ruza, seminar va maxsus kurslarni tashkil etishda qo‘llash imkoniyati, shuningdek, tadqiqot materiallaridan dissertatsiyalar, monografiyalar, o‘quv qo‘llanmalar va darsliklar yaratish, ta’lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni integratsiya qilishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. “Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida ingliz tili darslarini raqamli texnologiyalar asosida takomillashtirish (7–8-sinf o‘quvchilari misolida)” mavzusida bajarilgan ilmiy tadqiqot natijalari asosida:

ingliz tilini raqamli texnologiyalar asosida o‘qitish jarayonining didaktik imkoniyatlari o‘quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishga yo‘naltirilgan raqamli kompetensiya komponentlari o‘zaro mantiqiy uzviylikda namoyon bo‘ladigan integrativ yondashuv asosida aniqlashtirishga oid takliflardan Xalq ta’limi vazirining 2023-yil 18-maydagi 156-sonli buyrug‘i asosida 2023-2024-yillarda bajarilishi nazarda tutilgan Al-201704-sonli “Umumta’lim muassasalari

bitiruvchilarining ona tili (o‘zbek tili) fani bo‘yicha malakasini baholash hamda 14 ta fandan test tizimini ishlab chiqish” nomli fundamental loyihasida foydalanilgan (A.Avloniy nomidagi pedagoglarni kasbiy rivojlantirish va yangi metodikalarga o‘rgatish milliy-tadqiqot institutining 2025-yil 20-noyabrdagi 03-17-09-992-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, ingliz tilini raqamli texnologiyalar asosida o‘qitish jarayonining didaktik imkoniyatlari o‘quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishda ishning amaliy natijadorligini oshirgan;

ingliz tili darslarida raqamli ta’lim platformalari, interaktiv o‘quv resurslari hamda multimedia texnologiyalarini ta’lim jarayoniga bosqichma-bosqich va tizimli integratsiyalash asosida o‘quvchilarning kommunikativ va raqamli kompetensiyalarini shakllantirish metodikasini takomillashtirilganligiga doir taklif va tavsiyalardan O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston 24” ijodiy birlashmasi davlat muassasasining televizion ko‘rsatuvlarning mazmunini boyitishda foydalanilgan (O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston 24” ijodiy birlashmasi davlat muassasasining 2025-yil 18-iyundagi 05-09/957-son ma’lumotnomasi). Natijada, lingodidaktikada multimedia texnologiyalarini qo‘llash hamda ta’limga doir ko‘rsatuvlar sifatini oshirishda ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etgan;

ingliz tili darslarida raqamli ta’lim platformasi, interaktiv o‘quv resurslari hamda multimedia texnologiyalarini ta’lim jarayoniga bosqichma-bosqich va tizimli integratsiya qilishga asoslangan holda o‘quvchilarning til kompetensiyalarini shakllantirish metodikasi takomillashtirilganligiga oid takliflar va ilmiy xulosalar “Tillar o‘qitish metodikasi va ta’lim texnologiyalari” nomli o‘quv qo‘llanmasi mazmuniga singdirilgan (Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalida 2025-yilning 14-dekabridagi 234020522-raqamli ma’lumotnomasi). Natijada, ingliz tili darslarida raqamli ta’lim platformasi, interaktiv o‘quv resurslari hamda multimedia texnologiyalarini ta’lim jarayoniga bosqichma-bosqich va tizimli integratsiya qilish imkoni sezilarli oshgan;

ingliz tilini raqamli texnologiyalar asosida o‘qitish jarayonining didaktik imkoniyatlari o‘quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishga yo‘naltirilgan raqamli kompetensiya komponentlari o‘zaro mantiqiy uzviylikda namoyon bo‘ladigan integrativ yondashuv asosida aniqlashtirishga oid nazariy xulosalardan Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetining chet tillarini o‘qitishga oid ta’lim jarayonida foydalanilgan (Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetining 2026-yil 30-yanvardagi 11-05-528/04-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, umumiy o‘rta ta’lim maktablarida ingliz tili darslarini raqamli texnologiyalar asosida tashkil etishning didaktik imkoniyatlarini kengaytirish, o‘quvchilarning kommunikativ va raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish hamda ta’lim jarayonining ilmiy-metodik ta’minotini takomillashtirishga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 8 ta, jumladan 5 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 16 ta ilmiy ish chop etilgan, jumladan, 1 ta elektron o‘quv platforma yaratilgan, 1 ta o‘quv qo‘llanma, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari (PhD) asosiy ilmiy natijalarni

chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola, jumladan, 4 ta respublika va 2 ta xorijiy jurnallarda ilmiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati hamda ilovalardan iborat bo‘lib, asosiy matn 175 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, muammoning o‘rganilganlik darajasi hamda dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi yoritilgan. Tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekti, predmeti hamda usullari belgilangan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon etilgan. Shuningdek, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, amaliyotga joriy qilinishi, aprobatsiyasi va e’lon qilinishi, dissertatsiyaning tuzilishi hamda hajmi to‘g‘risida ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida ingliz tilini o‘qitishning ilmiy-metodik asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida 7–8-sinf ingliz tili darslarini raqamli texnologiyalar asosida takomillashtirishning me’yoriy-huquqiy, pedagogik-psixologik va amaliy-diagnostik asoslari yoritilgan.

Bobning birinchi faslida umumiy o‘rta ta’lim maktablarida ingliz tilini o‘qitishga oid me’yoriy-huquqiy hujjatlar, ta’limni raqamlashtirishga doir davlat talablari hamda chet tilini kompetensiyaviy va kommunikativ yondashuvlar asosida o‘qitishning ilmiy-metodik tamoyillari tahlil qilingan. Mazkur talablarni amalga oshirish raqamli vositalarni darsga shunchaki qo‘shish bilan cheklanmasdan, dars maqsadi, ingliz tili mazmuni, pedagogik metod, o‘quvchi faoliyati va baholash vositalarini o‘zaro muvofiqlashtirishni taqozo etishi asoslangan.

Tadqiqot doirasining aynan 7–8-sinflar bilan chegaralanishi mazkur bosqichning til ta’limidagi o‘rni, o‘quvchilarning raqamli faoliyatga tayyorligi va tajriba-sinov ishlarini izchil tashkil etish imkoniyati bilan izohlangan. Bu bosqichda o‘quvchilar avval egallagan leksik-grammatik bilimlarini tinglab tushunish, gapirish, o‘qish va yozish jarayonlarida amaliy qo‘llashga o‘tadilar. Shuningdek, ular multimedia resurslari, interaktiv topshiriqlar, onlayn baholash hamda mustaqil raqamli mashqlar bilan ishlashga yetarli darajada tayyor bo‘ladilar. 7–8-sinflarda o‘quvchilarning ta’limiy moslashuvi nisbatan barqarorlashgani va yakuniy attestatsiya bilan bog‘liq yuklama hali kuchaymagani ishlab chiqilgan metodikani izchil sinovdan o‘tkazish uchun qulay sharoit yaratadi.

Bobning ikkinchi faslida 7–8-sinf o‘quvchilarining pedagogik-psixologik xususiyatlari ingliz tilini o‘zlashtirish jarayoni bilan bog‘liq holda o‘rganilgan. Mazkur yoshda abstrakt-mantiqiy tafakkurning rivojlanib borishi, tengdoshlar bilan muloqotga ehtiyojning kuchayishi, mustaqillikka intilish va raqamli muhitga qiziqishning yuqoriligi bilan birga, diqqatning tez chalg‘ishi, motivatsiyaning o‘zgaruvchanligi hamda axborotni o‘zlashtirish sur’atidagi individual farqlar kuzatilishi aniqlangan.

7-sinf o‘quvchilari uchun qisqaroq, aniq yo‘riqnomaga ega, vizual tayanchlar va o‘yin elementlari bilan boyitilgan topshiriqlar maqbul bo‘lsa, 8-sinf o‘quvchilari

uchun nisbatan davomli, mustaqil, muammoli va tahliliy topshiriqlardan foydalanish maqsadga muvofiqligi belgilangan. Diqqatning beqarorligi topshiriqlarni qisqa va mantiqiy tugallangan bosqichlarga ajratishni, xotiradagi individual farqlar multimodal taqdimot hamda oraliqli takrorlashni, mustaqillik va tengdoshlar bilan muloqotga ehtiyoj esa individual, juftlik va guruhli raqamli faoliyatlarni tashkil etishni talab qilishi asoslangan. Baholash jarayonida formativ tekshiruv, tezkor teskari aloqa, o‘zini o‘zi va o‘zaro baholash, kommunikativ rubrikalar hamda natijalar dinamikasini monitoring qilish usullaridan foydalanish zarurligi aniqlangan.

Shuningdek, o‘quvchilarda uchraydigan fonetik, leksik va grammatik interferensiyani kamaytirish uchun ona tili va ingliz tilidagi til hodisalarini qiyoslash, nutq namunalarini audio-vizual shaklda taqdim etish, takroriy mashqlar va tuzatuvchi teskari aloqani raqamli topshiriqlar tarkibiga kiritish lozimligi belgilangan.

Bobning uchinchi faslida O‘zbekiston umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 7–8-sinflarida ingliz tilini o‘qitishda raqamli texnologiyalardan foydalanishning amaliy holati diagnostika qilingan. Dastlabki diagnostika Navoiy, Samarqand va Namangan viloyatlaridagi tajriba-sinov maktablarida o‘tkazilib, unda 15 nafar ingliz tili o‘qituvchisi, 60 nafar 7–8-sinf o‘quvchisi ishtirok etgan hamda 10 ta ingliz tili darsi videokuzatuv asosida o‘rganilgan. So‘rovnoma, yarim tuzilmalashtirilgan intervyu va kuzatuv natijalari o‘qituvchilarning raqamli vositalarga munosabati, ulardan foydalanish maqsadi, mavjud texnik va metodik muammolar hamda o‘quvchilarning ehtiyojlarini aniqlash imkonini bergan.

1-jadval

7–8-sinf ingliz tili darslarida raqamli texnologiyalardan foydalanishning diagnostik holati

Diagnostik yo‘nalish	Aniqlangan holat	Metodik xulosa
Raqamli ta’limga munosabat	O‘qituvchilarning 86 foizi raqamli vositalar dars samaradorligini oshirishiga ishonadi	Ijobiy munosabat maqsadli metodika va muntazam monitoring bilan qo‘llab-quvvatlanishi zarur
Texnik ta’minot	Respondentlarning 58 foizi texnik ta’minotni doimiy muammo sifatida qayd etgan	Mobil qurilmalarga mos, kam internet trafigini talab qiladigan va zarur hollarda oflayn qo‘llanadigan materiallardan foydalanish lozim
Amalda qo‘llanayotgan vositalar	Wordwall, Quizizz, Google Classroom, YouTube va Duolingo vositalaridan foydalanilishi qayd etilgan	Mazkur vositalardagi topshiriq, multimedia, baholash va monitoring natijalari yagona metodik tizimda birlashtirilishi kerak
Raqamli vositalarning darsdagi vazifasi	Ulardan asosan taqdimot, video, elektron mashq va avtomatik test sifatida foydalanilgan	Hamkorlikdagi, muammoli va kommunikativ raqamli vazifalar ulushini oshirish zarur
O‘qituvchilarning raqamli-metodik tayyorgarligi	O‘qituvchilarning texnik va metodik ko‘nikmalari bir xil darajada emas	Texnologiya, pedagogika va ingliz tili mazmunini uyg‘unlashtiruvchi metodik yo‘riqnoma talab etiladi
O‘quvchi diqqati va raqamli gigiyena	Chalg‘ituvchi kontent, ekran vaqtining ortishi va ko‘z zo‘riqishi holatlari qayd etilgan	Topshiriqlarni qisqa bloklarga ajratish, vizual yuklamani me’yorlashtirish va faoliyat turlarini almashtirish lozim

Diagnostika natijalari raqamli vositalardan foydalanish asosan ko‘rgazmali taqdimot, videomaterial, elektron mashq va avtomatik test bilan cheklanayotganini ko‘rsatgan. Bunday vositalar darsning ko‘rgazmaliligi va tezkorligini oshirsa-da, o‘quvchilarning kommunikativ faoliyati, differensial ta’limi, individual monitoringi, refleksiyasi va o‘qituvchining mazmuniy teskari aloqasi bilan yetarli darajada bog‘lanmagan.

Tahlillar asosida raqamli vositalardan samarali foydalanishning metodologik tayanchi sifatida TPACK, SAMR, aralash ta’lim, mobil vositalar yordamida til o‘rganish — MALL hamda vazifaga asoslangan til o‘qitish — TBLT konsepsiyalari tanlangan. TPACK texnologiya, pedagogika va ingliz tili mazmunining uyg‘unligini; SAMR raqamli topshiriqlarning oddiy elektron almashtirishdan kommunikativ faoliyatni qayta loyihalash darajasiga o‘tishini; aralash ta’lim sinfdagi va mustaqil faoliyatning uzviyligini; MALL mobil va moslashuvchan ta’limni; TBLT esa aniq kommunikativ natijaga yo‘naltirilgan topshiriqlarni tashkil etishni ta’minlovchi nazariy asos sifatida qabul qilingan.

Birinchi bob tahlillari natijasida 7–8-sinf o‘quvchilarining raqamli muhitda interaktiv, mustaqil va kommunikativ faoliyat olib borishga bo‘lgan ehtiyoji bilan ingliz tili darslarida raqamli vositalarning fragmentar qo‘llanilishi, differensial topshiriqlar, individual monitoring va yagona metodik tizimning yetarli darajada shakllanmaganligi o‘rtasidagi metodik ziddiyat aniqlangan.

Mazkur ziddiyatni bartaraf etish uchun “Prepare.uz” platformasi, “Prepare” darsligi mazmuni, multimedia resurslari, interaktiv va adaptiv topshiriqlar, kommunikativ vazifalar, tezkor teskari aloqa hamda diagnostik baholashni yagona metodik siklga birlashtirish zarurligi asoslangan. Birinchi bobda olingan nazariy va diagnostik natijalar dissertatsiyaning ikkinchi bobida taklif etilgan metodika va metodik modelni ishlab chiqish uchun ilmiy-metodik asos bo‘lib xizmat qilgan.

Dissertatsiyaning **“Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida ingliz tili fanini o‘qitishda raqamli o‘quv vositalaridan foydalanishning nazariy asoslari**” deb nomlangan ikkinchi bobida 7–8-sinf ingliz tili darslarini raqamli texnologiyalar asosida tashkil etish metodikasi, mazkur metodikaning modeli hamda tanlangan raqamli o‘quv resurslarining qiyosiy-didaktik imkoniyatlari yoritilgan.

Bobning birinchi faslida 7–8-sinf ingliz tili darslarini raqamli texnologiyalar asosida tashkil etish metodikasi maqsad, mazmun, metodologik yondashuvlar, didaktik tamoyillar, bosqichlar, metodlar, raqamli vositalar, o‘qituvchi va o‘quvchi faoliyati, baholash hamda kutiladigan natijalarni o‘zaro bog‘lovchi yaxlit metodik tizim sifatida takomillashtirilgan.

Metodikaning maqsadi o‘quvchilarning tinglab tushunish, gapirish, o‘qish va yozish ko‘nikmalarini integratsiyalashgan holda rivojlantirish, ularning kommunikativ kompetensiyasi, o‘quv mustaqilligi va raqamli savodxonligini oshirishdan iborat. Metodika mazmuniga “Prepare” darsligidagi fonetik, leksik, grammatik, kommunikativ va lingvomadaniy materiallar hamda ularga mos audio, video, elektron matn, interaktiv mashq, onlayn test va kommunikativ topshiriqlar kiritilgan.

Metodikaning nazariy asosini kommunikativ, kompetensiyaviy, integrativ, shaxsga yo‘naltirilgan, faoliyatga asoslangan va differensial yondashuvlar tashkil etgan. Maqsadga yo‘naltirilganlik, izchillik, interaktivlik, multimodallik,

differensiallashtirish, bosqichlilik, tezkor teskari aloqa va raqamli gigiyena uning asosiy didaktik tamoyillari sifatida belgilangan.

Birinchi bobda aniqlangan pedagogik-psixologik xususiyatlar metodik yechimlarni tanlashga asos bo‘lgan. O‘quvchilar diqqatining tez chalg‘ishi topshiriqlarni qisqa va mantiqiy tugallangan bloklarga ajratishni, motivatsiyaning o‘zgaruvchanligi geymifikatsiya va individual natijalarni ko‘rsatishni, kognitiv imkoniyatlardagi farqlar topshiriqlarni differensiallashtirish va bosqichma-bosqich murakkablashtirishni taqozo etgan. Vizual yuklamani me’yorlashtirish, audio va vizual tayanchlardan foydalanish, avtomatik tekshiruvni o‘qituvchining mazmuniy izohi bilan to‘ldirish metodik shartlar sifatida belgilangan.

2-jadval

7–8-sinf ingliz tili darslarini raqamli texnologiyalar asosida tashkil etish algoritmi

Bosqich	**Didaktik maqsad**	**O‘qituvchi va o‘quvchi faoliyati**	**Oraliq natija**
Kirish diagnostikasi	Boshlang‘ich tayyorgarlik, ehtiyoj va qiyinchiliklarni aniqlash	O‘qituvchi test, kuzatish va kommunikativ vazifani tashkil etadi; o‘quvchi diagnostik topshiriqlarni bajaradi	Boshlang‘ich diagnostik profil shakllanadi
Rejalashtirish va differensiallashtirish	Maqsad, topshiriq darajasi, yordam hajmi va faoliyat shaklini belgilash	O‘qituvchi diagnostika asosida mazmun, resurs va guruhlash usulini tanlaydi; o‘quvchi maqsad hamda baholash mezonlarini anglaydi	Differensial o‘quv rejasi tuziladi
Raqamli taqdim va idrok	Yangi til materiali va kommunikativ vaziyatni multimodal shaklda taqdim etish	Audio, video, tasvir va interaktiv matn taqdim etiladi; o‘quvchi asosiy mazmun va til birliklarini ajratadi	Yangi materialning dastlabki o‘zlashtirilishi ta’minlanadi
Boshqariladigan interaktiv mashq	Til birliklarini tushunish va dastlabki qo‘llashni mustahkamlash	O‘quvchilar tanlash, moslashtirish, guruhlash, tartiblash va qisqa javobli mashqlarni bajaradilar	Boshqariladigan qo‘llash ko‘nikmasi shakllanadi
Kommunikativ amaliyot	Til vositalarini mazmunli muloqot jarayonida qo‘llash	O‘quvchilar juftlik va guruhlarda dialog, rolli o‘yin, muammoli vazifa, taqdimot yoki raqamli mahsulot yaratadilar	Kommunikativ mahsulot va amaliy muloqot yuzaga keladi
Baholash, teskari aloqa va refleksiya	Natija, xato va keyingi ehtiyojni aniqlash	Avtomatik test, o‘qituvchi rubrikasi, o‘zini o‘zi va o‘zaro baholash hamda refleksiv savollardan foydalaniladi	Yangilangan diagnostik ma’lumot olinadi
Mustaqil mustahkamlash va keyingi trayektoriya	Ko‘nikmalarni mustahkamlash va navbatdagi siklni rejalashtirish	O‘quvchi natijasiga mos tuzatuvchi yoki murakkablashtirilgan vazifani bajaradi va natijani portfolioga joylashtiradi	Keyingi metodik sikl uchun yangi boshlang‘ich ma’lumot shakllanadi

Mazkur algoritm raqamli vositalarni darsda tasodifiy qo‘llashdan aniq kommunikativ natijaga yo‘naltirilgan tizimli faoliyatga o‘tishni ta’minlaydi. Baholash va refleksiya bosqichlarida olingan ma’lumotlarning keyingi diagnostika hamda rejalashtirish bosqichiga qaytarilishi metodikaning yopiq teskari aloqa mexanizmini yuzaga keltiradi.


Bobning ikkinchi faslida ingliz tilini raqamli texnologiyalar asosida o‘qitishning metodik modeli takomillashtirilgan. Model maqsadli, metodologik, mazmuniy-axborotli, jarayonli, tashkiliy-faoliyatli, diagnostik va natijaviy bloklardan tashkil topgan.

Modelda metodologik yondashuvlarning o‘zaro ierarxiyasi belgilangan. Integrativ yondashuv barcha bloklarni birlashtiruvchi tizim hosil qiluvchi yondashuv; kompetensiyaviy yondashuv kutiladigan natija va baholash mezonlarini belgilovchi strategik yondashuv; kommunikativ-faoliyatli yondashuv til birliklarini amaliy muloqotda qo‘llashga yo‘naltirilgan jarayonli yondashuv sifatida qabul qilingan. Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv o‘quv faoliyatini individual ehtiyojlarga moslashtirish, axborotga yo‘naltirilgan yondashuv esa raqamli resurslarni tanlash va qayta ishlash vazifasini bajaradi.

Modelning nazariy tayanchlarini TPACK konsepsiyasi, CEFRning faoliyatga yo‘naltirilgan talablari, madaniyatlararo kommunikativ kompetensiya, differensial ta’lim, hamkorlikda o‘rganish va ichki motivatsiyani qo‘llab-quvvatlashga oid qarashlar tashkil etgan. Ushbu nazariyalar modelda ingliz tili mazmuni, pedagogik metod, raqamli vosita, kommunikativ topshiriq va baholash o‘rtasidagi funksional muvofiqlikni ta’minlashga moslashtirilgan.

Model madaniy xabardorlik, differensial o‘qitish, motivatsiya va rag‘batlantirish, hamkorlikda o‘rganish hamda til ko‘nikmalarini integratsiyalash tamoyillariga tayangan. Uning takomillashtirilgan jihati raqamli mazmun, interaktiv topshiriq, kommunikativ faoliyat, formativ baholash va refleksiya jarayonlarining yagona metodik siklga birlashtirilganligi bilan belgilanadi. Diagnostika natijalarining rejalashtirish va differensial pedagogik yordam bosqichiga qaytarilishi modeldagi to‘g‘ri va teskari aloqani ta’minlovchi funksional mexanizm sifatida asoslangan.

Model samaradorligini baholash uchun motivatsion, kognitiv, nutqiy-kommunikativ va faoliyatli-texnologik mezonlardan iborat diagnostik tizim shakllantirilgan. Motivatsion mezon o‘quvchining ingliz tilini raqamli vositalar yordamida o‘rganishga qiziqishi, tashabbusi va qat’iyatini; kognitiv mezon leksik-grammatik bilimlari hamda audio, video va matnli axborotni tushunishini ifodalaydi. Nutqiy-kommunikativ mezon o‘quvchining real yoki modellashtirilgan vaziyatda og‘zaki va yozma fikr bildirishini, faoliyatli-texnologik mezon esa raqamli topshiriqlarni mustaqil bajarish, natijani saqlash, taqdim etish va teskari aloqadan foydalanish ko‘nikmalarini qamrab oladi (1-rasmga qarang).



1-rasm. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida ingliz tili darslarini raqamli texnologiyalar asosida takomillashtirish modeli

Bobning uchinchi faslida aynan 7–8-sinf ingliz tili darslari uchun tanlangan raqamli resurslarning didaktik vazifalari, rivojlantiradigan til ko'nikmalari, ustun

jihatlari, cheklovlari va baholash imkoniyatlari qiyosiy tahlil qilingan. “Prepare.uz” darslik mavzulari, multimedia kontenti va raqamli topshiriqlarni birlashtiruvchi asosiy integratsion muhit, qolgan vositalar esa muayyan didaktik vazifani bajaruvchi yordamchi resurslar sifatida tavsiflangan (3-jadvalga qarang).

3-jadval

7–8-sinf ingliz tili darslari uchun tanlangan raqamli vositalarning didaktik vazifalari

Raqamli vosita	**Rivojlantiriladigan ko‘nikma**	**Yetakchi didaktik vazifa**	**Metodik tizimdagi maqomi**
“Prepare.uz”	Tinglab tushunish, o‘qish, leksika-grammatika va yozish; o‘qituvchi topshirig‘i asosida gapirish	Darslik mavzusi, raqamli kontent va topshiriqlarni yagona ketma-ketlikda tashkil etish	Asosiy integratsion muhit
Google Slides	O‘qish, yozish, reja asosida gapirish va multimedia asosida tinglash	Yangi materialni ko‘rgazmali taqdim etish va o‘quvchi raqamli mahsulotini yaratish	Taqdimot va kommunikativ mahsulot vositasi
YouTube	Tinglab tushunish, talaffuz va gapirishga tayyorgarlik	Kontekstli audio-video nutq namunasini taqdim etish	Multimedia kontenti manbai
Wordwall	Leksika, grammatika, o‘qish va imlo	O‘yinlashtirilgan boshqariladigan mashq va takrorlash	Interaktiv mashq vositasi
Liveworksheets	Tinglash, o‘qish, leksika-grammatika va boshqariladigan yozuv	Audio, matn va interaktiv elementlarga asoslangan individual mashq	Interaktiv ish varag‘i
Quizizz	Leksika, grammatika, o‘qib tushunish va qisqa javob	Joriy baholash va individual qiyinchiliklarni aniqlash	Formativ diagnostika vositasi
Kahoot	Leksik-grammatik bilimlar va mazmunni anglash	Umumsinf faolligi, tezkor takrorlash va qisqa nazorat	Faollashtirish va tezkor nazorat vositasi
Google Forms	O‘qish, leksika-grammatika va yozma javob	Kirish, joriy va yakuniy diagnostika hamda ma’lumotlarni yig‘ish	Diagnostika vositasi

Raqamli resurslarning darslik mazmuniga integratsiyasi “darslik mavzusi – A2 darajasiga mos kommunikativ natija – raqamli topshiriq – vosita – baholash shakli – kutiladigan natija” ketma-ketligi asosida amalga oshirilgan. Mazkur mexanizm raqamli topshiriqning darslik mavzusi va kuzatiladigan kommunikativ natija bilan bog‘lanishini ta’minlaydi.

Masalan, 8-sinfning “Eating out” mavzusida o‘quvchining xizmat ko‘rsatish vaziyatida buyurtma berishi, istak va afzalligini ifodalashi A2 darajasiga mos kommunikativ natija sifatida belgilangan. Raqamli menyu, audio-dialog va juftlikdagi rolli vaziyat “Prepare.uz” hamda Liveworksheets vositalari orqali tashkil etilib, tinglab tushunish natijalari test, og‘zaki muloqot esa gapirish rubrikasi asosida baholanadi.

“Prepare.uz” platformasining foydalanuvchi rollari, avtorizatsiya, kurslar

tuzilmasi, kontent joylashtirish, interaktiv topshiriqlar, natijalarni saqlash, monitoring, teskari aloqa, xavfsizlik va shaxsiy ma’lumotlarni muhofaza qilish jihatlarini qamrab oluvchi texnik-pedagogik pasporti shakllantirilgan. Pasportda platformaning mavjud, qisman tasdiqlangan, taklif etilgan va hujjatlashtirilmagan funksiyalari o‘zaro farqlangan.

Platformada 7–8-sinflar uchun kurslar, o‘quvchi va o‘qituvchi sifatida ro‘yxatdan o‘tish hamda login-parol orqali kirish imkoniyatlari mavjudligi qayd etilgan. Kontent, tashqi interaktiv mashqlar, avtomatik tekshiruv, monitoring va teskari aloqa imkoniyatlari qisman tasdiqlangan. Elektron portfolio, to‘liq gamifikatsiya, alohida mobil ilova va oflayn ishlash imkoniyatlari esa tegishli texnik dalillarsiz platformaning amaldagi funksiyasi sifatida ko‘rsatilmagan. Topshiriqlarni moslashtirish avtomatik adaptiv algoritm emas, balki diagnostika natijalariga asoslangan o‘qituvchi boshqaruvidagi differensial mexanizm sifatida talqin qilingan.

Shunday qilib, ikkinchi bobda metodika ilmiy-metodik natija, model nazariy-metodologik natija, “Prepare.uz” platformasi esa darslik mazmuni va raqamli resurslarni birlashtiruvchi amaliy mahsulot sifatida o‘zaro farqlangan. Mazkur natijalar uchinchi bobdagi tajriba-sinov ishlarini tashkil etish, metodika va model samaradorligini belgilangan mezonlar asosida tekshirish hamda natijalarni matematik-statistik tahlil qilish uchun metodik asos yaratgan.

Dissertatsiyaning **“7–8-sinf ingliz tili darslarida raqamli o‘quv vositalaridan foydalanishning tajriba-sinov ishlari natijalari”** deb nomlangan uchinchi bobida ishlab chiqilgan metodika va metodik modelning pedagogik samaradorligini tabiiy ta’lim sharoitida tekshirishga qaratilgan tajriba-sinov ishlarining tashkil etilishi, mazmuni hamda matematik-statistik tahlil natijalari yoritilgan.

Tajriba-sinov ishlarining maqsadi 7–8-sinf ingliz tili darslarini “Prepare.uz” platformasi, multimedia materiallari, interaktiv topshiriqlar, kommunikativ raqamli faoliyat, differensiallashtirish va tezkor teskari aloqa asosida tashkil etishga qaratilgan metodikaning pedagogik samaradorligini aniqlashdan iborat bo‘ldi.

Tajriba-sinov nazorat guruhi ishtirokidagi “dastlabki diagnostika – pedagogik intervensiya – yakuniy diagnostika” ketma-ketligiga asoslangan kvazi-eksperimental dizaynda tashkil etildi. Maktablardagi mavjud yaxlit sinflar saqlab qolindi va o‘quvchilar individual ravishda tasodifiy qayta taqsimlanmadi. Maktablar maqsadli-mezonli tanlash, parallel sinflar esa dastlabki diagnostika natijalari asosida juftlash tamoyili bo‘yicha saralandi.

Tajriba bazasini tanlashda 7–8-sinflarda o‘zaro qiyoslanadigan parallel sinflarning mavjudligi, bir xil davlat o‘quv dasturi va darsliklardan foydalanilishi, ingliz tili o‘qituvchilarining tajribada ishtirok etishga tayyorligi hamda raqamli topshiriqlarni qo‘llash uchun zarur minimal texnik sharoitlarning mavjudligi hisobga olindi. Tajriba-sinov tanlanmasining hududlar va guruhlar kesimidagi tarkibi 4-jadvalda keltirilgan.

4-jadval

Tajriba-sinov tanlanmasining hududlar va guruhlar kesimidagi tarkibi

Hudud	Tajriba-sinov muassasalari	TG	NG	Jami
Namangan viloyati	Kosonsoy tumanidagi 30-, 31- va 34-umumiy o‘rta ta’lim maktablari	91	89	180
Navoiy viloyati	Navoiy shahridagi 7-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	119	121	240
Samarqand viloyati	Kattaqo‘rg‘on tumanidagi 18-umumiy o‘rta ta’lim maktabi, Samarqand tumanidagi 7-umumiy o‘rta ta’lim maktabi va Nurobod tumanidagi ixtisoslashtirilgan maktab-internat	60	60	120
Jami	7 ta ta’lim muassasasi	270	270	540

Tajriba-sinov ishlariga Namangan, Navoiy va Samarqand viloyatlaridagi yettita ta’lim muassasasidan jami 540 nafar 7–8-sinf o‘quvchisi jalb qilindi. Ularning 270 nafari tajriba guruhini, 270 nafari nazorat guruhini tashkil etdi. Hududlar kesimida guruhlar sonida kichik farqlar mavjud bo‘lsa-da, umumiy tanlanmada tajriba va nazorat guruhlari teng shakllantirildi.

Tajriba-sinov ishlarining umumiy tashkiliy-metodik davri 2023–2026-o‘quv yillarini qamrab oldi. Mazkur davr metodikaning o‘quvchilarga uch yil davomida uzluksiz qo‘llanganini anglatmaydi. Aniqlovchi bosqich 2023–2024-o‘quv yilida, shakllantiruvchi bosqich 2024–2025-o‘quv yilida, yakunlovchi bosqich esa 2025–2026-o‘quv yilida amalga oshirildi. Ishlab chiqilgan metodikaning bevosita pedagogik intervensiyasi 2024–2025-o‘quv yilida ketma-ket uch oy davom etdi.

